



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI.....	12
Usmonova Zarina	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI VA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	19
Zaripova Sabrina Zafar qizi	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK TARMOG'IDA INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA JORIY ETISH: SAMARADORLIK, TO'SIQLAR VA ISTIQBOLLAR.....	25
Sobirov Shohruh Shuxratovich	
ISTE'MOLCHILAR ORASIDA IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI QISQA FORMATLI VIDEOKONTENTNING IMPULSIV XARID XATTI-HARAKATLARIGA TA'SIRI.....	30
Ra'no Balxiboyeva Davron qizi	
KAPITAL BOZORI ORQALI TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH YO'LLARI.....	40
Otabek Oltiboyev	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISHNING YALPI TALAB O'ZGARISHIGA TA'SIRI TAHLILI.....	45
Ochilov Laziz Siddiqovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA YANGI ISLOHOTLARNING MAKROIQTISODIY TAHLILI	54
Sanakulova Iroda Abrorovna	
GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L YAYLOVLARI IXTISOSLASHUVINI MOSLASHTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZILQUM CHO'L YAYLOVLARI MISOLIDA)	61
Kozokov Najmiddin Isomiddinovich	
XALQARO OLIY TA'LIM TIZIMLARIDA UNIVERSITET BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI: INSTITUTSIONAL AVTONOMIYA, HISOBDOIRLIK VA STRATEGIK BOSHQARUV MODELLARI	68
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
THREE GENERATIONS OF REFORM: GOVERNANCE PARADIGMS AND THE MEASUREMENT GAP IN UZBEKISTAN'S SUSTAINABLE DEVELOPMENT TRANSITION	76
Salakhutdinova Yulduz Golibovna	
ГЕНЕРАТИВНЫЙ ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНТЕНТ-МАРКЕТИНГА	82
Умарова Нозанин Алишерзода	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	88
Sapayev Abduljalol Odinayevich	
TIJORAT BANKLARIDA TO'LOV TIZIMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH	96
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
UMUMIY IQTISODIY MUVOZANAT NAZARIYASINING ZAMONAVIY TALQINI.....	102
Murodov Alisher Murodjon o'g'li	
РОЛЬ СИСТЕМЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕЁ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	106
Уралова Сожида Анвар кизи	



JIZZAX VILOYATI TURIZMINING RIVOJLANISH DINAMIKASI, TUZILMASI VA ISTIQBOLLARI (2016–2024-YILLAR)	112
Mamadiyrov Adhamjon Qo'chqar o'g'li	
KREATIV INDUSTRIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	121
Ulug'bekov Sardorbek Ulug'bekovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	128
Turdiyev Eralijon Muxtarovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BUDJETDAN TASHQARI TUSHUMLAR AUDITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	134
Abduraxmonov Saidqosimxon Abduhamid o'g'li	
CHAKANA BANK XIZMATLARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING NAZARIY JIHATLARI	138
Asqarov Fayzullo G'iyosiddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BILIM VA MALAKALARNI RAQAMLI BAHOLASH TIZIMINING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	148
Abdiyev Nosir Raximovich	
Muzaffarova Mohira Nuraliyevna	
O'ZBEKISTON BANK SEKTORIDA MOLIYAVIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	154
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZM INFRATUZILMASINING HUDUDII RIVOJLANISH DARAJASINI QIYOSIY BAHOLASH	160
Omonova Nigora Bahodir qizi	
ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING INSTITUTSIONAL RIVOJLANISHINI STRATEGIK BOSHQARISH MEXANIZMLARI	167
Iskandarov Xurshid Iskandarovich	
TEXNOLOGIK AVLOD ALMASHINISHI SHAROITIDA ALOQA KORXONALARI TOVAR-MODDIY ZAXIRALARINING QADRSIZLANISHINI HISOBGA OLISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	175
Jamilov Jushqin Jonon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH DARAJASINI ANFIS ASOSIDA MODELLASHTIRISH	181
Avazova Nafisa Namazovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH: O'ZSME-DDI MODULINING METODOLOGIYASI VA AMALIY JORIY ETISH MEXANIZMI	186
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
ISLOM MOLIYASI TAMOYILLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	193
Kenjaeva Durdona Ravshan qizi	
ФАКТОРНЫЙ АНАЛИЗ КАК ИНСТРУМЕНТ ИССЛЕДОВАНИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	198
Аюбов Ойбек Улугбек угли	
YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA MA'LUMOTLAR TAHLILINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH	204
Raximov Sarvarbek Abdumutalibjonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH, ULARNI MOLIYALASHTIRISHNI RAG'BATLANTIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI	211
Umarova Gulzodxon Qodirbekovna	



MEHMONXONA XO'JALIKLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL MEXANIZMI VA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	216
Rahimov Hasan Abdusaitovich	
NOMODDIY AKTIVLAR BO'YICHA OSHKORALIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA MILLIY HISOBNI XALQARO STANDARTLAR BILAN UYG'UNLASHTIRISH.....	221
Ishankulov Izzatilla Nurillayevich	
SANOATLASHTIRISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA UNUMDORLIK OMILI.....	226
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
INNOVATSION O'ZGARISHLAR ASOSIDA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHNING 2030-YILGACHA MO'LJALLANGAN PROGNOZ SSENARIYLARI VA ULARNING SEZGIRLIK TAHLILI	232
Amrullayev Dadaxon	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ УЯЗВИМОСТИ СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ И СТРУКТУРНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	237
Эркинбаева Камила Жавланбековна	
TIJORAT BANKLARI BIZNES MODELINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	243
Sh. Nurullayeva	
S. Narimonov	
OLIY TA'LIMDA RAQAMLI EKOTIZIMNI SHAKLLANTIRISHDAGI XAVF-XATARLAR (RISKLAR) VA BOSHQARUV MUAMMOLARI.....	249
Pirmanov Oxunjon Baxridin o'g'li	
НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	256
Шомуродов Равшан Турсункулович	
Хакимов Хафизбек Хамза угли	
Джумабаева Гаянэ Рахимовна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOTRANSPORT XIZMATLARI BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI EKOLOGIK-IQTISODIY OMILLAR ASOSIDA OSHIRISH YO'LLARI	263
Sultanov Sulaymon Safarboy o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA UNI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	269
Abdushukurova Mehribonu Dilmurod qizi	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH, YER RESURLARIDAN FOYDALANISH VA AHOLINING XARID QOBILIYATI MUVOFIQLIGINI BAHOLASH	276
Ramazonov Zafar Ulug'bekovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ СТРАХОВОГО РЫНКА	281
Мирахмедова Мафтуна Ибрагимовна	
TIJORAT BANKLARIDA FOIZ SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING AMALIY JIHATLARI.....	288
Orifova Dilnoza Obid qizi	
XALQARO KREDIT LINIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	295
Aliyev Bekzod Ilhomovich	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ УЧЁТА И АНАЛИЗА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ	301
Холикова Дурдона Бунёдjon кизи	



TOSHKENT VILOYATIDA ISHLAB CHIQUARISH SOHASIDA KICHIK BIZNESNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA HUDUDIIY DIFFERENSIATSIYASI.....	308
Salimov Burxoniddin	
IJTIMOIIY-IQTISODIIY ADOLATNI TA'MINLASHDA SINERGETIK YONDASHUV: ZANJIRLI ADOLAT KONSEPSIYASI.....	314
Alimov Nasimjon Hoshimovich	
AQLLI SHAHAR TIZIMIDA IJTIMOIIY SOHA BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEXANIZMLARI.....	319
Radjabov Bunyod Abduxalilovich	
QO'SHILGAN QIYMATNI TAQSIMLASHNING SAMARALI SOLIQ MEXANIZMIGA OID XORIJ TAJRIBALARI.....	326
A.A. Bobomurodov	
O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT" TIZIMIGA O'TISH ZARURIYATI VA XIZMATLAR SOHASI UCHUN IQTISODIIY AHAMIYATI.....	333
Y.M.Xalikov	
OLIIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA AKADEMIK FAOLIYATNI BOSHQARISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	342
Ixtiyorov Bekzod Zulfiqor o'g'li	
YOSHLARNING RAQAMLI MEHNAT PLATFORMALARIDA BARQAROR BANDLIGINI RISKKA ASOSLANGAN STRATEGIK BOSHQARISH.....	349
Palvonova Sevara Baxromovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	355
Almanov Ilhom Sultonovich	
MAKTABGACHA TA'LIM XIZMATLARINI GEYMIKATSIIYALASH ASOSIDA TA'LIM SIFATI VA IQTISODIIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH	362
Aslonova Rushano Ilxomovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIIY NATIJADORLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH.....	368
Tursunxo'jayeva Gulnoza Jamoliddin qizi	
HUDUDLARNING IQTISODIIY RIVOJLANISHIDA ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	374
Xolmatov Azamatjon Abdupattoyevich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКСПОРТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭКСПОРТНОЙ АКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ	380
Муниса Турдибаева	
LOYIHA MENEJERLARINING SOFT SKILLS KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING LOYIHALAR IQTISODIIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	394
Zairova Farida To'xtamurod qizi	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIIY KO'RSATKICHLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH.....	400
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	407
Jumaev Sohob Baxodirovich	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI VA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TRANSFORMATSIYON MODELII.....	412
Murodullayeva Guljaxon A'zamjon qizi	
INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY VA USLUBIIY ASOSLARI	418
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	426
Olimboyeva Nazokat Abdujabbor qizi	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARIDA INTEGRALLASHGAN RISKKA YO'NALTIRILGAN AUDIT MODELIDAN FOYDALANISH USLUBIYOTI.....	431
Muydinov Erkin Jamaldinovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	441
Bekbergenov G'ayrat Shuxratovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARINING EKSPORT FAOLIYATINI SOLIQ MEXANIZMLARI ASOSIDA MOLIYAVIY RAG'BATLANTIRISH	446
O'rinova Umida Qodirjonovna	
SOG'LIQNI SAQLASHNING YAGONA RAQAMLI EKOTIZIMIDA KIBERXAVFSIZLIK RISKLARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	450
Turayeva Nafisa Odiljonovna	
XORAZM VILOYATIDA YER BOZORI INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	456
Ubaydov Mirshod Ismailovich	
O'ZBEKISTON UY-JOY BOZORIDA MOLIYAVIY PUFAK XAVFINI BAHOLASH: INTEGRAL INDEKSNI SHAKLLANTIRISH VA EKONOMETRIK TAHLIL	462
Botirov Islombek Ulug'bek o'g'li	
SUTCHILIKGA IXTISOSLASHGAN CHORVACHILIK KORXONALARIDA TANNARXNING BUXGALTERIYA HISOBINING OBYEKTI SIFATIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	467
Razzoqov Abbas Abdumalik o'g'li	
BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY XATO VA NOMUVOFIQLIKLAR ICHKI AUDITNING INSTITUTSIONAL-TASHKILY MEXANIZMI	472
Mulayev Farxod Alisherovich	



BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY XATO VA NOMUVOFIQLIKLAR ICHKI AUDITINING INSTITUTSIONAL-TASHKILIIY MEXANIZMI

Mulayev Farxod Alisherovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

E-mail: farhodmulaev@gmail.com

ORCID: 0009-0002-9268-6603

Abstract. The article studies the institutional and organizational mechanism of the internal audit of financial errors and irregularities in budget organizations. The status, reporting line, powers, and functional independence of the internal audit service are analysed on the basis of the “three lines of defence” model. As a result, the “MXN-01” working paper and a unified identification mechanism are developed, ensuring a continuous internal audit trail from the detection of each financial error or irregularity to its full remediation. The structure, attributes, coding procedure, and monitoring stages of the mechanism are substantiated.

Keywords: internal audit service, institutional mechanism, audit trail, working paper, MXN-01, identification code, three lines of defence, accountability, monitoring, budget organization.

Annotatsiya. Maqolada budjet tashkilotlarida moliyaviy xato va nomuvofiqliklar ichki auditining institutsional-tashkiliy mexanizmi tadqiq etilgan. Ichki audit xizmatining maqomi, hisobdorlik chizig'i, vakolatlari va funksional mustaqilligi “uchta himoya chizig'i” modeli asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida har bir moliyaviy xato va nomuvofiqlikning aniqlanishidan to'liq bartaraf etilishigacha bo'lgan uzluksiz ichki audit izini ta'minlovchi “MXN-01” ishchi hujjati hamda yagona identifikatsiya mexanizmi ishlab chiqilgan. Mexanizmning tuzilishi, rekvizitlari, kodlash tartibi va monitoring bosqichlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ichki audit xizmati, institutsional mexanizm, audit izi, ishchi hujjat, MXN-01, identifikatsiya kodi, uchta himoya chizig'i, hisobdorlik, monitoring, budjet tashkiloti.

Аннотация. В статье исследован институционально-организационный механизм внутреннего аудита финансовых ошибок и несоответствий в бюджетных организациях. Статус, линия подотчётности, полномочия и функциональная независимость службы внутреннего аудита проанализированы на основе модели «трёх линий защиты». Разработаны рабочий документ «MXN-01» и единый механизм идентификации, обеспечивающие непрерывный аудиторский след от выявления каждой финансовой ошибки или несоответствия до её полного устранения. Обоснованы структура, реквизиты, порядок кодирования и этапы мониторинга механизма.

Ключевые слова: служба внутреннего аудита, институциональный механизм, аудиторский след, рабочий документ, MXN-01, идентификационный код, три линии защиты, подотчётность, мониторинг, бюджетная организация.

KIRISH

Ichki auditning ta'sirchanligi ko'p jihatdan uning tashkiliy modeliga bog'liq. Auditor qanchalik malakali bo'lmasin, agar xizmat baholanayotgan jarayonlarga tobe bo'lsa yoki aniqlangan holatlar bo'yicha keyingi harakat tartibi belgilanmagan bo'lsa, audit natijasi hisobot varag'ida qolib ketadi. Shu sababli budjet tashkilotlarida moliyaviy xato va nomuvofiqliklar ichki auditini takomillashtirish masalasi metodikadan oldin institutsional-tashkiliy mexanizmi asoslashni talab qiladi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda bu yo'nalishda muhim qadamlar qo'yildi: davlat organlari tarkibida mustaqil ichki audit xizmatlari tashkil etildi, 2022-yil 1-yanvardan boshlab budjet tashkilotlarida o'tkaziladigan barcha nazorat tadbirlari yagona elektron tizimda qayd etila boshlandi, ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizom tasdiqlandi. Shu bilan birga, amaliyotda aniqlangan holatlarning keyingi taqdirini kuzatish — ya'ni qaysi kamchilik qachon, kim tomonidan va qanday bartaraf etilgani haqidagi uzluksiz yozuvni tizimli tarzda yuritish mexanizmini yanada takomillashtirish zarurati mavjud.

Mazkur jihatni takomillashtirish zarurati amaliyotda ham namoyon bo'ladi: audit hisobotida qayd etilgan kamchilik keyingi yil hisobotida yana uchrashi mumkin, biroq uning oldingi holat bilan bir xilligini rasmiy dalil



bilan ko'rsatish imkoniyati cheklangan bo'ladi. Natijada tizimli muammoni o'zaro bog'liq holatlar sifatida aniqlash va unga mos choralarni belgilash mexanizmini yanada rivojlantirish talab etiladi.

Tadqiqotning maqsadi — budget tashkilotlarida moliyaviy xato va nomuvofiqliklar ichki auditing institutsional-tashkiliy mexanizmini asoslash hamda aniqlangan har bir holat bo'yicha to'liq audit izini ta'minlovchi hujjatlashtirish vositasini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ichki auditning tashkiliy mustaqilligi masalasi IIA hujjatlarida markaziy o'rin egallaydi. 2024-yildan kuchga kirgan Global Internal Audit Standards ichki audit rahbarining funksional hisobdorligini eng yuqori boshqaruv organiga (kengash yoki unga tenglashtirilgan organga), ma'muriy hisobdorligini esa tashkilot rahbariyatiga bog'lashni talab qiladi. Ushbu ikki tomonlama hisobdorlik modeli auditorni kundalik boshqaruv bosimidan himoya qiladi.

IIA tomonidan taklif etilgan "uchta himoya chizig'i" modeli (2020-yilgi tahrirda "Three Lines Model") funksiyalarni taqsimlashning eng keng tarqalgan sxemasi hisoblanadi: birinchi chiziq — operatsion boshqaruv, ikkinchi chiziq — muvofiqlik, risk-menejment va moliyaviy nazorat funksiyalari, uchinchi chiziq — mustaqil ichki audit. Model xato va nomuvofiqliklarning oldini olish javobgarligini birinchi va ikkinchi chiziqqa, ularni mustaqil baholashni esa uchinchi chiziqqa yuklaydi.

INTOSAI hujjatlari, xususan, ISSAI 100 va ISSAI 4000, audit jarayonining hujjatlashtirilishiga alohida talab qo'yadi: audit jarayoni va xulosalar shunday hujjatlashtirilishi kerakki, loyihaga aloqasi bo'lmagan tajribali auditor ham bajarilgan ishlarni va xulosalar asosini tushuna olsun. Bu talab audit izi (audit trail) tushunchasining metodologik asosini tashkil etadi.

Ishchi hujjatlarga qo'yiladigan talablar IIA standartlarida ham batafsil bayon etilgan: ichki auditorlar topshiriq bo'yicha to'plangan ma'lumot, o'tkazilgan tahlil va shakllantirilgan xulosalarni hujjatlashtirishi, hujjatlar esa xulosani qo'llab-quvvatlash uchun yetarli bo'lishi shart. Ushbu talab ishchi hujjatni auditorning shaxsiy qaydlaridan tashkilotning rasmiy axborot resursiga aylantiradi.

Milliy amaliyotda ichki audit xizmatining maqomi va vakolatlari namunaviy nizom bilan belgilangan. Adabiyotlarda ichki audit xizmatlarining kadrlar salohiyati, metodik ta'minoti va tavsiyalar ijrosi ustidan monitoringni yanada takomillashtirish masalalari dolzarb yo'nalish sifatida qayd etiladi. Shu bilan birga, aniqlangan holatni yagona identifikator bilan qayd etib, uning butun "hayot sikli"ni kuzatish mexanizmini milliy tadqiqotlarda yanada rivojlantirish zarurati mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlarning kontent tahlili, xalqaro standartlar bilan qiyosiy tahlil, funksional-tarkibiy tahlil hamda hujjatlashtirish vositasini loyihalashda tizimli modellash usullaridan foydalanilgan, shuningdek, tadqiqot materiallarini tizimlashtirish va maqola matnini tayyorlash jarayonida sun'iy intellekt vositalaridan yordamchi vosita sifatida 10 foizgacha foydalanilgan. Ichki audit xizmatining institutsional o'rni "uchta himoya chizig'i" modeli asosida, aniqlangan holatlarning harakati esa jarayon bosqichlari (aniqlash — rasmiylashtirish — xabar berish — bartaraf etish — tasdiqlash) kesimida tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Institutsional-tashkiliy mexanizm to'rt elementdan iborat deb qaraladi: xizmatning maqomi va mustaqilligi; vakolat va javobgarlik taqsimoti; aniqlangan holatlarni hujjatlashtirish va identifikatsiya qilish tartibi; ijro ustidan monitoring va hisobot berish tizimi. Birinchi ikki element milliy qonunchilikda umumiy tarzda belgilangan bo'lsa, uchinchi va to'rtinchi elementlar metodik ta'minotga muhtoj.

Mustaqillik talabi ikki jihatni qamrab oladi. Tashkiliy jihatdan ichki audit xizmati boshqa tarkibiy bo'linmalarga bo'ysunmasligi va o'zi baholaydigan jarayonlarni joriy etishda ishtirok etmasligi lozim. Funksional jihatdan esa xizmat audit rejasini shakllantirish, usullarni tanlash va xulosani bayon etishda tashqi ta'sirdan xoli bo'lishi kerak. Amaliyotda ikkinchi jihat ko'pincha zaif qoladi: audit rejasiga rahbariyat tomonidan o'zgartirish kiritilishi yoki aniqlangan holatning hisobotdan chiqarib tashlanishi mustaqillikning buzilishi hisoblanadi.

Aniqlangan holatlar bo'yicha uzluksiz audit izini ta'minlash uchun tadqiqotda "MXN-01" (moliyaviy xato va nomuvofiqlik) ishchi hujjati ishlab chiqildi. Hujjatning asosiy g'oyasi shundaki, har bir aniqlangan holat alohida yozuv sifatida qayd etiladi va unga butun hayot sikli davomida saqlanadigan yagona identifikator beriladi. Hujjat rekvizitlari 1-jadvalda keltirilgan.



Bo'lim	Rekvizitlar	Vazifasi
A. Identifikatsiya	Yagona kod, qayd sanasi, audit topshirig'i raqami	Holatni butun sikl davomida bir xil belgilash
B. Tavsif	Holat mazmuni, obyekt, davr, summa	Aniqlangan chetlanishni bayon etish
C. Kvalifikatsiya	Toifa (xato / nomuvofiqlik / firibgarlik xavfi), buzilgan norma	Holatni tasnif bo'yicha belgilash
D. Dalil	Audit amali, dalil manbayi, ilova hujjatlar ro'yxati	Xulosaning asoslanganligini ta'minlash
E. Baho	Ahamiyatlilik darajasi, xavf bahosi, ustuvorlik	Chora-tadbirlar ketma-ketligini belgilash
F. Sabab	Bevosita sabab, ildiz sabab, nazorat zaifligi	Takrorlanishning oldini olish
G. Tavsiya	Tavsiya mazmuni, mas'ul, muddat	Bartaraf etish yo'lini belgilash
H. Ijro	Bajarilish holati, tasdiqlovchi dalil, yopilish sanasi	Audit izini yakunlash

Manba: muallif ishlanmasi.

Hujjatning tuzilishi audit izining mantiqiy ketma-ketligini takrorlaydi: identifikatsiya — tavsif — kvalifikatsiya — dalil — baho — sabab — tavsiya — ijro. Ushbu ketma-ketlikda har bir keyingi bo'lim oldingisiga tayanadi, shu sababli bo'limlardan birortasini to'ldirmasdan qoldirish keyingi bosqichni asossiz qiladi. Masalan, “Sabab” bo'limi to'ldirilmasa, “Tavsiya” bo'limi muqarrar ravishda umumiy shaklda yoziladi.

Yagona identifikatsiya mexanizmi hujjatning eng muhim elementi hisoblanadi. Tadqiqotda kod tuzilishining quyidagi formati taklif etiladi: MXN — tashkilot kodi — yil — audit topshirig'i raqami — holatning tartib raqami — toifa belgisi. Masalan, **MXN-14203-2026-07-015-N** ko'rinishidagi kod aniq tashkilotdagi 2026-yilgi yettinchi audit topshirig'ida aniqlangan o'n beshinchi holat bo'lib, uning nomuvofiqlik toifasiga mansubligini bildiradi.

MXN-14203-2026-07-015-N

MXN	14203	2026	07	015	N
prefiks	tashkilot kodi	yil	topshiriq raqami	holat tartib raqami	toifa belgisi

1-rasm. “MXN-01” yozuvining identifikatsiya kodi tuzilishi

Manba: muallif ishlanmasi.

Kodning o'zgarmasligi mexanizmning asosiy tamoyilidir. Holat bo'yicha keyingi barcha hujjatlar — audit hisoboti, tavsiyalar ro'yxati, bartaraf etish rejasi, ijro to'g'risidagi ma'lumotnoma va keyingi davrdagi qayta tekshiruv natijasi — ayni shu kodga havola qiladi. Natijada har qanday vaqtda holatning qaysi bosqichda ekanini aniqlash mumkin bo'ladi. Mexanizm bosqichlari 2-jadvalda keltirilgan.




2-jadval
Moliyaviy xato va nomuvofiqlikning audit izi bosqichlari

Bosqich	Mazmuni	Holat kodi statusi
1. Aniqlash	Audit amali natijasida chetlanish qayd etiladi	Ochilgan
2. Kvalifikatsiya	Toifa, norma va ahamiyatlilik belgilanadi	Baholanmoqda
3. Xabar berish	Obyekt rahbariyatiga va tegishli darajaga yetkaziladi	Kelishuvda
4. Bartaraf etish	Mas'ul shaxs chora ko'radi, dalil taqdim etadi	Ijroda
5. Tasdiqlash	Auditor ijroni mustaqil tekshiradi	Tasdiqlangan
6. Yopish yoki qayta ochish	Holat yopiladi yoki takrorlangani sababli qayta ochiladi	Yopilgan / Takroriy

Manba: muallif ishlanmasi.

Yagona identifikatsiya kodi butun sikl davomida o'zgarmaydi



2-rasm. Moliyaviy xato va nomuvofiqlikning audit izi va holat statuslari

Manba: muallif ishlanmasi.

Mexanizmning institutsional ahamiyati shundaki, u javobgarlikni personallashtiradi. Har bir holatda mas'ul shaxs, muddat va tasdiqlovchi dalil qayd etilgani sababli tavsiyalarining bajarilmasligi anonim qolmaydi. Bundan tashqari, "Takroriy" statusining mavjudligi tizimli muammolarni ajratib olish imkonini beradi: agar bir xil kod toifasidagi holat ketma-ket ikki audit siklida qayd etilsa, bu alohida holat emas, balki nazorat tizimining zaifligi ekanini bildiradi va u yuqori boshqaruv darajasiga chiqariladi.

Mexanizmning yana bir vazifasi — ichki audit rahbarining hisobot berish majburiyatini ta'minlashdir. Holat statuslari bo'yicha jamlangan ma'lumot davriy hisobotning tayyor asosini beradi: yopilgan, ijrodagi va muddati o'tgan holatlar soni hech qanday qo'shimcha yig'ish ishisiz olinadi. Bu esa hisobotni subyektiv bayondan miqdoriy tasvirga aylantiradi.

Taklif etilgan mexanizm mavjud elektron tizim bilan uyg'unlashadi. Nazorat tadbirlari yagona elektron platformada qayd etilar ekan, "MXN-01" yozuvlarini shu platformaning ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilish idoraviy va tarmoq kesimida umumlashtirilgan tahlil o'tkazish, eng ko'p takrorlanadigan chetlanish turlarini aniqlash va audit rejalarini shakllantirishda ushbu ma'lumotlardan foydalanish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari ichki auditning uch xil muammosini bir vaqtda hal etishga qaratilgan. Birinchisi — hujjatlashtirishning nostandartligi: turli auditorlar bir xil holatni turlicha rasmiylashtirishi umumlashtirilgan tahlilni imkonsiz qiladi. "MXN-01"ning belgilangan rekvizitlari bu muammoni bartaraf etadi.

Ikkinchisi — tavsiyalar ijrosining kuzatilmasligi. Amaliyotda audit hisoboti taqdim etilgandan keyin holatning taqdiri ko'pincha keyingi audit siklida ma'lum bo'ladi. Yagona identifikator va status tizimi bu bo'shliqni yopadi.

Uchinchisi — tizimli va yakka holatlarni farqlash. Kodlash tizimi statistik umumlashtirish uchun asos yaratadi va tizimli zaifliklarni miqdoriy dalillar bilan asoslash imkonini beradi.

To'rtinchi jihat — mexanizmning tashqi audit bilan aloqasi. Hisob palatasi tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvda ichki audit tomonidan allaqachon aniqlangan va bartaraf etilgan holatlar bo'yicha hujjatlashtirilgan iz mavjud bo'lsa, tashqi auditor o'z ishinings qamrovini shunga muvofiq belgilashi mumkin. Bu takroriy tekshiruvlarni kamaytiradi va ichki auditning obro'sini mustahkamlaydi.



Mexanizmni joriy etishning cheklovlari ham mavjud. U ichki audit xizmatining ma'lum kadrlar salohiyatini, elektron tizim bilan integratsiyani va rahbariyat tomonidan tavsiyalar ijrosini ta'minlash irodasini talab qiladi. Kichik budjet tashkilotlarida to'liq shakldagi hujjat yuritish ortiqcha yuk bo'lishi mumkin, shu sababli soddalashtirilgan variantni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Birinchidan, budjet tashkilotlarida moliyaviy xato va nomuvofiqliklar ichki auditning institutsional-tashkiliy mexanizmi xizmatning maqomi va mustaqilligi, vakolat taqsimoti, hujjatlashtirish tartibi hamda ijro monitoringi elementlarining yaxlitligini talab qiladi. Ushbu elementlardan birortasining zaifligi butun mexanizmning ta'sirchanligini pasaytiradi.

Ikkinchidan, har bir moliyaviy xato va nomuvofiqlikning aniqlanishidan bartaraf etilishigacha bo'lgan ichki audit izini ta'minlash uchun "MXN-01" ishchi hujjati va yagona identifikatsiya mexanizmi ishlab chiqildi. Mexanizm holatga o'zgarmas kod berish, uni olti bosqichli status tizimi orqali kuzatish va takroriy holatlarni avtomatik ajratib olish imkonini beradi.

Uchinchidan, mexanizmni nazorat tadbirlari qayd etiladigan yagona elektron tizim bilan integratsiya qilish ichki audit ma'lumotlarini boshqaruv qarorlari uchun analitik manbaga aylantiradi. Kelgusi tadqiqotlarda mexanizmning turli hajmdagi budjet tashkilotlari uchun moslashtirilgan variantlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. **O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi:** O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrdagi O'RQ-360-son Qonuni bilan tasdiqlangan // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — Toshkent, 2013. — Amaldagi tahrir. LexUZ — O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi
2. **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi PF-6300-son "Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni** // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — Toshkent, 2021. LexUZ — PF-6300-son Farmon
3. **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi 416-son "Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori** // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — Toshkent, 2022. — Amaldagi tahrir. LexUZ — 416-son qaror
4. **The Institute of Internal Auditors (IIA).** *Global Internal Audit Standards.* — Lake Mary, FL: The Institute of Internal Auditors, 2024. — Issued: January 9, 2024; effective: January 9, 2025. IIA — Global Internal Audit Standards
5. **The Institute of Internal Auditors (IIA).** *The IIA's Three Lines Model: An Update of the Three Lines of Defense.* — Lake Mary, FL: The Institute of Internal Auditors, 2020. — Position Paper. IIA — The Three Lines Model
6. **International Organization of Supreme Audit Institutions (INTOSAI).** *ISSAI 100: Fundamental Principles of Public-Sector Auditing.* — INTOSAI, 2019 ed. INTOSAI — ISSAI 100
7. **International Organization of Supreme Audit Institutions (INTOSAI).** *ISSAI 4000: Compliance Audit Standard.* — INTOSAI, 2019 ed. INTOSAI — ISSAI 4000
8. **Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO).** *Internal Control — Integrated Framework.* — Durham, NC: American Institute of Certified Public Accountants, 2013. COSO — Internal Control framework
9. **Xamidova Z. U.** Budjet tashkilotlarida moliyaviy nazorat va ichki audit xizmati faoliyatini takomillashtirish // *Iqtisod va moliya.* — 2020. — № 3 (135). — B. 78–84.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>